

AHMAD YASSAVIY VA YUNUS EMRO HIKMATLARIDA ADABIY TA'SIR VA IZDOSHLIK

Nurboy JABBOROV

*filologiya fanlari doktori, professor,
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
O'zbek adabiyoti tarixi kafedrasini mudiri
(O'zbekiston)*

Annotatsiya

Maqolada Yunus Emro turkiy she'riyatda Xoja Ahmad Yassaviy ijodiy an'analarini munosib davom ettirgani ikki shoir asarlari qiyosiy tahlili asosida dalillangan. Ikki buyuk shoir asarlari uch yo'nalishda qiyoslangan: 1) irfoniy mazmunning badiiy talqini; 2) badiiy obraz yaratishdagi an'ana va o'ziga xoslik; 3) badiiy asar tili va ifoda usuli. Qiyosiy tahlil natijasida, birinchidan, Yunus Emroning ulug' bir irfon shoiri ekani, ikkinchidan, badiiy ijodda hazrat Xoja Ahmad Yassaviy an'analarini munosib davom ettirgani, uchinchidan, turkiy xalqlar adabiy-estetik tafakkuri yuksalishiga katta hissa qo'shgani haqidagi xulosaga kelingan.

Kalit so'zlar: she'r, hikmat, irfoniy mazmun, poetik obraz, badiiy talqin, badiiy asar tili, ifoda usuli, ijodiy an'ana, izdoshlik, qiyosiy tahlil.

Аннотация

В статье на основе сравнительного анализа творчества двух поэтов доказывается, что Юнус Эмро продолжил творческие традиции Ходжи Ахмада Яссави в тюркской поэзии. Произведения двух великих поэтов сопоставляются по трем направлениям: 1) художественная интерпретация эзотерического смысла; 2) традиция и оригинальность в создании художественного образа; 3) язык художественного произведения и способ выражения. Сравнительный анализ приводит к таким выводам: во-первых, Юнус Эмро был великим поэтом-эзотериком, во-вторых, он продолжил традиции Хазрата Ходжи Ахмада Яссави в художественном творчестве, в-третьих, внес большой вклад в развитие литературно-эстетического мышления тюркских народов.

Ключевые слова: стихотворение, мудрость, эзотерическое значение, поэтический образ, художественная интерпретация, язык художественного произведения, способ выражения, творческая традиция, преемственность, сравнительный анализ.

Annotation

In the article, based on a comparative analysis of the works of two poets, it is proved that Yunus Emro continued the creative traditions of Khoja Ahmad

Yassawi in Turkic poetry. The works of two great poets are compared in three directions: 1) artistic interpretation of the esoteric meaning; 2) tradition and originality in the creation of an artistic image; 3) the language of the work of art and the way of expression. Comparative analysis leads to the following conclusions: firstly, Yunus Emro was a great esoteric poet, secondly, he continued the traditions of Hazrat Khoja Ahmad Yassawi in artistic creativity, and thirdly, he made a great contribution to the development of the literary and aesthetic thinking of the Turkic peoples.

Keywords: poem, wisdom, esoteric meaning, poetic image, artistic interpretation, language of a work of art, mode of expression, creative tradition, continuity, comparative analysis.

Tarixi va taqdiri, tili, dini va dili bir bo'lgan o'zbek va turk xalqlari adabiyoti mushtarak ildizlarga ega ekani ayon. Ikki qardosh xalq adabiy aloqalari ko'pasrlilik taraqqiyot yo'lini bosib o'tgani, jahon adabiyoti xazinasiga ko'plab buyuk shoiru adiblarni yetishtirib bergani ham ma'lum. XIII asrda yashab ijod etgan ulug' turk mutasavvif shoiri Yunus Emro ana shunday jahoniy e'tirofga sazovor mutafakkir ekani isbot talab qilmaydi. Shoirning irfoniy mazmun va go'zal badiiyat uyg'unligida yaratilgan nodir she'rlari, masnaviy yo'lida bitilgan "Risolatu-n-nus'hiyya" nomli falsafiy-didaktik asari bizgacha yetib kelgan. Bu asarlar inson va uning kamoloti, e'tiqod va ma'rifat, Haq va haqiqat mavzulari betakror badiiy talqin etilgani bilan bugungacha ahamiyatini saqlab kelayotir.

Yunus Emro nazmiy asarlarini tahlil etish natijalari ularda "Turkiston mulkining shayxu-l-mashoyixi" (hazrat Alisher Navoiy ta'rifi – N.J.) Xoja Ahmad Yassaviy an'analari munosib davom ettirilganidan dalolat beradi. Ulug' shoirning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev so'zboshisi bilan, atoqli olim va shoir Mirzo Kenjabek tarjimasida asosida nashr etilgan "O'lmas ko'ngul" saylanma she'rlar to'plamidagi hikmatlari ham ushbu fikrni tasdiqlaydi. Davlatimiz rahbari mazkur nashrga yozilgan so'zboshida mana bunday ahamiyatli fikrlarni aytgan: "...hazrat Yassaviy izdoshlarining, jumladan, Yunus Emroning turkiy xalqlar ma'naviyatiga ko'rsatgan hayotbaxsh ta'sirini o'rganish borasida olimlarimiz oldida jiddiy vazifalar turibdi va biz bu yo'lda faol hamkorlik qilishimiz zarur" [1.4]. Darhaqiqat, Ahmad Yassaviy "Devoni hikmat" idagi she'rlarni Yunus Emro nazmiy asarlari bilan qiyosiy o'rganish, an'ana va yangilik, izdoshlik va badiiy takomil nuqtai nazaridan ilmiy baholash turkiy xalqlar adabiyotshunosligi oldida turgan dolzarb ilmiy muammolardandir.

Ilmiy izlanishlar bu ikki buyuk shoir ijodini quyidagi masalalar kesimida qiyosiy o'rganish zarurligini ko'rsatadi:

1. Irfoniy mazmunning badiiy talqini.

2. Badiiy obraz yaratishdagi an'ana va o'ziga xoslik.
3. Badiiy asar tili va ifoda usuli.

Ushbu masalalar tahlili, birinchidan, Yunus Emroning ulug' bir irfon shoiri ekani, ikkinchidan, badiiy ijodda hazrat Xoja Ahmad Yassaviy an'alarini munosib davom ettirgani, uchinchidan, turkiy xalqlar adabiy-estetik tafakkuri yuksalishiga katta hissa qo'shigani haqidagi to'xtamga olib keladi.

Irfoniy mazmunning badiiy talqini. Yunus Emro – tasavvuf shoiri. Tasavvuf ta'limotining o'zagini tashkil etuvchi shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat tushunchalari talqini shoir she'riyatida asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hikmatlari o'zaro uyg'un bo'lishi barobarida bir-birini takrorlamaydi. Masalan, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida mana bunday yozadi:

Shariatning maqomotin bilgan oshiq
Tariqatning maqomini bilar, do'stlar.
Tariqatning ishlarini ado qilib,
Haqiqatning daryosig'a kirar, do'stlar.

Ayni mavzu Yunus Emro she'riyatida quyidagicha talqin etilgani kuzatiladi:

Avval eshik – shariat,
o'tsa undan – tariqat,
Ko'ngul uyi – ma'rifat,
ishq – haqiqat ichinda!
Shariat shirin bo'lur,
eshitganga xush kelur,
Nekim istasa, qilur
ul – shariat ichinda!

Har ikkala shoir fikricha, tariqat yo'liga kirish shariatdan boshlanadi. Hazrat Yassaviy hikmatlaridan birida: *“Tariqatga shariatsiz kirganlarni, Shayton kelib imonini olur ermish”* deyilishi sababi shunda. Ayni mazmunni Yunus Emro: *“Avval eshik – shariat, o'tsa undan – tariqat”* deya obrazli ifodalaydi. Xoja Ahmad Yassaviy: *“Tariqatning ishlarini ado qilib”* deganda ma'rifat maqomini ko'zda tutadi. Ushbu hikmat haqiqatning daryosiga kirish yo'li ana shu tarzda kechishi haqidagi badiiy-irfoniy xulosa bilan nihoyalangan. Yunus Emro ushbu ma'rifiy mazmunni: *“Ko'ngul uyi – ma'rifat, ishq – haqiqat ichinda”* tarzida o'ziga xos ifodalaydi.

“Shariat, tariqat, ma'rifat, haqiqat, ishq va oshiqlik, orif va oriflik, darvish, faqru fano, shayx, pir va valiylik, zikr, xilvat kabi tasavvufiy mavzularda aks etgan yassaviylikning olti ahkomi bor: ma'rifati Haq, saxovati mutlaq, sidqi muhaqqaq, yaqin mustag'raq, tavakkuli rizqi muallaq, tafakkuri mudaqqaq” [6.6]. Yunus Emro hikmatlarida ham ayni shu mavzular o'ziga xos ifodalangani kuzatiladi.

Ma'rifat maqomi haqidagi ikki shoir qarashlari ham o'zaro mutanosib. Lekin badiiy talqin ohorli. Ya'ni mohiyatan uyg'un tushunchalarning o'ziga xos ifodasi ular ijodining irfoniy-estetik qimmatini belgilaydi. Jumladan, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatida ma'rifatning mohiyati mana bu tarzda talqin etiladi:

Tariqatdur bu yo'l otin bilsa darvish,
Ma'rifatni mato'idin olsa darvish.
O'zga yo'llar bori havo sonsa darvish,
Ma'rifatni maydonida er ul bo'lur.

Yunus Emro esa ayni fikrni o'ziga xos ifodalaydi:

Ma'rifat – ko'ngul bilan,
tunu kun zoriy bilan,
So'ylasam – kelmas tilga,
sirri – sifat ichinda!

Ya'ni har ikki shoir hikmatida mohiyat – uyg'un, talqin – ohorli. Sultonul-orifin Ahmad Yassaviy ma'rifatning mato'idan olmasdan, o'zga barcha yo'llarni havo sonmasdan, ya'ni Haq va haqiqatga to'siq bo'ladigan hamma narsadan kechmay turib ma'rifat maydonining eri darajasiga erishmoq mahol ekanini ana shunday talqin etadi. Yunus Emro fikricha ham: "Ma'rifat – ko'ngil bilan, tunu kun zoriy bilan" hosil bo'ladi. Ya'ni ma'rifatga erishmoq uchun ko'ngilni bu maqomga parda bo'luvchi hoyu havaslardan tiymoq zarur. Shundagina ma'rifatning sirlariga oshno tutinish mumkin bo'ladi.

Tariqatning yuqori bosqichi bo'lgan haqiqat hazrat Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida mana bunday ta'riflanadi:

Ma'rifatning bo'stonida jonin burg'on,
Muhabbatning maydonida bosh o'ynag'on.
Haqiqatning daryosidin gavhar olg'on,
G'avvos yanglig' ul daryodin chiqmas bo'lur.

Haqiqat Yunus Emro she'riyatida ham mohiyatan Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlariga monand talqin etiladi:

Haqiqat – ishq, ergashgan
ko'rsin ul o'xshash bayon,
Haqiqat to'nin kiygan –
og'ir xil'at ichinda.

Sultonul-orifin fikricha, ma'rifat va muhabbatdan murod – haqiqat daryosidan gavhar olmoqdir. Buning uchun bamisoli g'avvos bo'lish, haqiqat daryosidan chiqmaslik kerak. Irfoniy mazmun va badiiy tasvir uyg'unligi Xoja Ahmad Yassaviy hikmatining ma'rifiy va adabiy ahamiyatini oshirganini e'tirof etish kerak. Yunus Emro ham ishqdan murod – haqiqat, deb biladi. Haqiqat to'ni og'ir xil'at ekani bu maqomga erishgan solikning darajasi yuqori bo'lishiga

ishoradir. “Inson dunyoga kelishi sababini anglamog‘i, ko‘ngil olami bilan Haqqa yuzlanmog‘i zarur edi. Har bir oshiq bu yo‘lda o‘zidan munosib iz qoldirib ketgan. Yunus beqiyos asarlar bitdi. Xalqni chin ko‘ngildan Haq ma‘rifatini anglashga chaqirdi va uning har bir so‘zi bir da‘vatdir” [2.10].

Badiiy obraz yaratishdagi an‘ana va o‘ziga xoslik. Har ikki shoir hikmatlarida badiiy obraz vositasida o‘quvchi ongi va qalbini ma‘rifat yog‘dulari bilan yoritishga erishgan. Irfoniy qarashlari orqali o‘quvchida ko‘ngilni isyon zanglaridan poklash, ma‘naviy kamolotga intilish ruhiyatini tarbiyalagan. Biz ushbu mo‘jaz tadqiqotda ushbu masalani birgina Do‘st obrazi orqali tahlil etishga harakat qilamiz.

Sharq islom adabiyotida Tangri taoloni Do‘st obrazi orqali vasf etish an‘anasi mavjud va bu an‘ana natijasida badiiyatning nodir namunalari yaratilgan. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida bu obrazning mana bunday talqini kuzatiladi:

Do‘st tilagan ul bo‘stonda qaror qilmas,
Haqiqatlik oshiqlari ishqsiz bo‘lmas.
Ko‘ngul mulkin bersa anga ko‘zga ilmas,
Taqvo qilur ichar nabot sharbatinda.

Do‘st tilamoq – Haq taolo muhabbatini da‘vo qilmoq ma‘nosida. Sultonu-l-orifin fikricha, ishqsiz bu maqsadga erishib bo‘lmaydi. Do‘stning visoliga muyassar bo‘lmoqning yagona yo‘li ko‘ngil mulkini Unga berish va taqvo qilmoqdir.

Mening tilim qush tilidur,
 mening qo‘lim Do‘st qo‘lidur,
Men bulbulman, Do‘st gulimdur,
 biling, gulim so‘lmas mening.

Ul Do‘st menga kelsin demish,
 sundim qadah, olsin demish,
Oldim qadah, ichdim sharob,
 endi ko‘nglim o‘lmas mening!

Yunus Emro she‘rida solikning ko‘nglini Do‘stga butunlay bag‘ishlash holati tasvirlangan. Tili qush tiliga, qo‘li do‘st qo‘liga aylanishi, Do‘st gul bo‘lsa, o‘zining bulbul ekani bilan bog‘liq talqinlar Haq taologa muhabbat tuyg‘usi ohorli badiiy talqin etilgani bilan qimmatlidir. Haqiqiy Do‘st qo‘lidan ishq sharobini ichgan oshiq ko‘ngli o‘lmasligi, doimiy barhayotligi bilan bog‘liq qarashlar shoir she‘rining irfoniy-badiiy ahamiyatini yuksaltirib yuborgan.

Do‘st(i) uchun dunyo uqbo mulkin solib,
Mavt o‘ti ichra kirib kuyub-yonub,

Necha quvsa dargohidin qorshu kelib,
«Ariniy!» deb zor yig‘layur hazratinda.

Xoja Ahmad Yassaviyning ushbu hikmatida Do‘st obrazi teran irfoniy mohiyat va yuksak badiiyat uyg‘unligida talqin etilgan. “Baqara” surasi 60-oyatidagi “Robbi ariniy” (“Rabbim menga ko‘rsat”) degan iltijo mazmuni bilan bog‘langani hikmatda haqiqiy Do‘stni chin ma‘rifat bilan tanimoq zarurati dunyo, uqbo mulki, mavt o‘ti singari tushunchalar mazmuniga bog‘lab ifodalangan.

Yunus Emroning mana bu satrlarida ham ayni mazmun ulug‘ salafini takrorlamagan holda aks etgani kuzatiladi:

Ikki jahon zindon esa,
kerak, manga bo‘ston bo‘lur,
Ortiq manga ne g‘am g‘ussa,
Chun inoyat Do‘stdan bo‘lur...

Ul Do‘st yuzin ko‘rdi ko‘zim,
Eranlarga – tuproq yuzim,
So‘z bilganga, bas bu so‘zim,
Kerak, shakkariston bo‘lur.

Haqiqiy Do‘stni chin ma‘rifat bilan tanimoq – Ahmad Yasaviy hikmatidagi ushbu mohiyat Yunus Emro she‘rida o‘ziga xos ifodalangan. Ya‘ni orif zotlarning qalbi Do‘stga bog‘langani uchun ham na dunyo tashvishlari, na oxirat g‘ami ularni o‘ylantirmaydi. U har doim rizo maqomida sobit bo‘ladi.

Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro ijodidagi oshiq, g‘arib, soqiy, piri mug‘on singari obrazlar va ularning irfoniy mohiyatni badiiy talqin etishdagi o‘rni masalalari yuzasidan kelajakda ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmog‘i zarur.

Badiiy asar tili va ifoda usuli. Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro asarlarining tili xalqchil ekani va turkiy tilning boy ifoda imkoniyatini o‘zida mujassam etgani bilan alohida ajralib turadi. Har ikki shoir hikmatlari milliy ruhning ohorli ifodasi, turkiy tilning fasohati va balog‘ati darajasi nechog‘liq yuksak ekanini ko‘rsatishi jihatidan badiiyatning nodir durdonalari sifatida baholanishga loyiqdir. Fikrimizni ayrim misollar bilan dalillashga harakat qilamiz. Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hikmatlarida Tangri, yonmoq (qaytmoq), qo‘pmoq (o‘rnidan turmoq), ujmoh (jannat), tamug‘ (do‘zax), ko‘ks (ko‘krak), ko‘ngul, eran (avliyo, pir) kabi yuzlab so‘zlarning arab va fors tillaridagi variantlari ham qo‘llangani holda, sof turkiy ekvivalenti faolroq qo‘llangani kuzatiladi. Masalan, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlaridan birida mana bunday yozilgan:

Olim uldur, xisht yostanib tahsil qilsa,
Kecha-kunduz Tangrisig‘a zori qilsa.

“Falyazhaku” oyatini tafsir qilsa,
Andog‘ olim olim bo‘lur, do‘stlarim-o.

Yunus Emro she‘rlarida ham “Tangri” so‘zi ko‘proq qo‘llangan. Jumladan, shoirning mana bu misralari fikrimizni tasdiqlaydi:

Āshik mi diyem ben ana Tanri’nun Uçmagin seve
Uçmak dahi tuzadimiş mü’mîn cänların tutmaga.

Ko‘rinib turibdiki, shoir “jannat” so‘zining turkcha “ujmoh” shaklini qo‘llagan. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham ayni shakldan unumli foydalaniladi. Birgina misol:

Tavba qilib, Haqqa yong‘on oshiqlarg‘a
Ujmoh ichra to‘rt arig‘da sharbati bor.

Ikki buyuk shoir asarlari tili va uslubi masalasini kengroq, chuqurroq va mufassal tadqiq etish turkiy adabiyotshunoslikning istiqboldagi vazifalaridandir.

Xulosa qilib aytganda, ikki qardosh xalqning buyuk mutasavvif shoirlari Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro adabiy merosi turkiy adabiyotda an‘ana va yangilik, hikmat janri takomili, irfoniy mazmunning badiiy ifodasi, til va uslub nuqtai nazaridan qiyosiy tadqiqotlar uchun boy material bera oladi. Bu ikki ulug‘ shoir irfoniy mohiyat va milliy ruhiyat betakror talqin etilgan asarlari bilan o‘zbek va turk xalqlari adabiyoti takomilida yangi bir bosqichni boshlab berdi. Xoja Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hikmatlari ikki xalqning qadimiy va mustahkam ildizlarga ega do‘stlik va qardoshlik munosabatlari ravnaqi yo‘lida bundan keyin ham beqiyos manba bo‘lib xizmat qilishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh. Do‘st bog‘ining bulbuli. / Yunus Emro. O‘lmas ko‘ngil. Saylanma she‘rlar. – Toshkent, 2020.
2. Tatci, Mustafa. Yunus Emre divani. – Istanbul, 2021.
3. Xoja Ahmad Yassaviy. “Haqdin o‘zgani dema...”. Hikmatlar (Nashrga tayyorlovchilar Ibrohim Haqqul, Nodirxon Hasan). – Ankara, 2021.
4. Хожа Аҳмад Яссавий. “Умринг елдек ўтаро...”. (Нашрга тайёрловчилар ва сўзбоши муаллифлари: Иброҳим Ҳаққул, Нодирхон Ҳасан). – Тошкент: Muharrir, 2020.
5. Yunus Emro. O‘lmas ko‘ngil. Saylanma she‘rlar (Tarjimon: Mirzo Kenjabek). – Toshkent, 2020.
6. Ҳаққул И., Ҳасан Н. Хожа Аҳмад Яссавий ва унинг ҳикматлари ҳақида. /Хожа Аҳмад Яссавий. “Умринг елдек ўтаро...”. – Тошкент: Muharrir, 2020.